

O'zR FA akademik S.Yu.Yunusov nomidagi «O'simlik moddalari Kimyosi instituti»

Директор



Sagdullaev Shomansur Shohsaidovich

t.f.d, professor

ixrv@mail.ru

(+99871) 2625913

Bog'lanish

Manzil: 100053, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek 77-A

Direktor: Sagdullaev Shomansur Shohsaidovich

Telifon: +998712625913

Faks: (+998 71) 2627348; 1206475

Sayt: <http://uzicps.uz>



O'simlik moddalari Kimyosi instituti (UMKI) – O'simlik moddalari kimyosi dorivor fitoprerapatlar va o'simliklarni ximoya qilish vositalarini yaratish bo'yicha yirik ilmiy tadqiqot muassasasi. Institut tomonidan O'rta Osiyo o'simlik resurslarini Amaliy o'zlashtirish o'simliklardan yuqori raqobatbardosh xususiyatga ega bo'lgan, jaxon namunalariga javob beradigan yangi yuqorisamarador dori vositalarini ishlab chiqarishga katta xissa qo'shilgan. Tabiiy birikmalar kimyosi sohasidagi maqsadli va keng tadqiqotlar Sobir Yunusovich Yunusov rahbarligida 1943 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Kimyo instituti organik kimyo bo'limi tarkibida alkaloidlar kimyosi laboratoriyasi tashkil etilgandan so'ng boshlandi, S.Yunusov, akad.A.P.Orexovning shogirdi, u boshlagan ishini davoi ettirdi. Balki yangi alkaloid-alkaloidlar kimyosining nazariy asoslari va amaliy jixattan zarur bo'lgan preparatlarni yaratish maqsadida uning asosida tutuchi o'simliklarni izlash va ular tarkibidagi alkaloidlarining kimyoviy tuzilishini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni

sifat jixatidan yangi pog'onaga olib chiqdi. Alkaloidlar kimyosi laboratoriyasining yutuqlari 1956 yilda yangi institut tashkil qilish masalasini ko'tarib chiqishga asos bo'ldi. Institutning ilmiy yunalishi - o'simliklarning vegetatsiya(o'sish) davri va o'sish xudidiga bog'liq xolda barcha organlardagi o'simlik moddalarini kompleks o'rganishdan iborat. Bu yunalishni rivojlantirish ko'p muammolarni xal qilish bilan bog'liq : O'simlik moddalarini ajratib olish uslublarini ishlash , ularning kimyoviy strukturasi o'rganish, O'simlik organizmining asosiy qismi sifatida tabiiy birikmalarining o'zaro boqligiga va bir biriga o'tishini, fiziologik faollik va kimyoviy tuzulish o'rtasidagibog'liqlikni aniqlash. Institut ilmiy tadqiqot ishlarini tematikasida o'simlik moddalari aratishda yangi dorivor preparatlarni yaratishga katta o'rin berilgan. Institutning S.Yu.Yunusov tomonidan taklif etilgan strukturaviy tuzilishi o'simlik moddalarini kompleks tadqiq qilish va olingan natijalarini amaliyotga tadbiq etishga yunaltirilgan. Institutning ko'p yillar davomida ortirgan tajribasi fitokimyoviy tadqiqotlarni konveer tizimini ishlab chiqishigazamin yaratdi, bu tizim asosidagi ish hozirgi vvaqtda xam davom etmoqda. O'simliklarning fitokimyoviy tadqiqotlarning konveer kompleks tizimi botanik tadqiqotlari, kimyoviy tadqiqotlari, ajratib olingan moddalarning biologik skrining birikmalarini o'tkazish, farmakologik va toksikologik xosslarini o'rganish (klinik oldi sinovlari), substansiyalar va dori shakillarini ishlab chiqarishni yaratish, preperat bilan klinik sinovlarini ta'minlash xalk xo'jaligigi tadbiq ettilishini kamrab oladi. Alkaloidlar kimyosi laboratoriyasida kshp sonli yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdagi yutuqlar institut tadqiqotlariga yangi yunalishlarni kiritishga asos bo'ldi, bu esa Institut strukturasi o'zgarishga sabab bo'ldi. 1956 yilda Institut tarkibida beshta tadqiqot laboratorisi : alkaloidlar kimyosi, g'o'za kimyosi, tabiiy polimerlar kimyosi, glikozidlar kimyosi va organik sintez kimyosi laboratoriyalari mavjud edi. 1956 - 64 yillarda farmakologiya va kimyoterapiya, lipidlar kimyosi, dorivor va texnik o'simliklar , o'stiruvchi moddalar, gerbetsidlar, defoliantlar, tajriba texnologiya laboratoriyalari tashkil etildi. 1965-70 yillarda akademiklar M. M. Shemyakin, Yu.A. Ovchinnikov va N.N. Melnikov kabi ko'zga ko'ringan olimlar qo'llab qo'vatlanganliklari tufayli S.Yu.Yunusov yosh fan doktorlari raxbarligida yangi laboratoriyalar , xususan, o'simlik uglevodlari, lakton va kislotalari, o'simliklar oqsili, nuklein kislotalar, kumarin va terpenoidlar, fosfor tutuvchi birikmalari, lignin, fizik uslublar va fito toksikologiya laboratoriyalari tashkil etildi. 1980-85 yillarda tajriba ishlab chiqarish korxonasi va sintetik preparatlar texnologiyasi laboratoriyalari tashkil topdi. 2004 yilda genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutidan molekulyar genetika laboratorisi bizning institutga o'tkazildi. Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqotlarga qo'yilgan zamon talablari asosida Institut o'z strukturasi qayta ko'rib chiqdi. Bugungi kunda Institutda 11 ta laboratoriya , 2 ilmiy bo'lim va tajriba sanoat korxonasi mavjud.